

**BOSHLANG‘ICH SINF MATEMATIKA DARSLARI ORQALI  
O‘QUVCHILARNING AXBOROTLAR BILAN ISHLASH  
KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH**

**Hakimova Nargiza Shuxratovna**

Xatirchi tuman 19-maktab boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi

**Uralova Hurmatoy Mamarajabovna**

Xatirchi tuman 42-maktab 1-toifali boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi

**Ravshanova Shoxida Rabbimovna**

Xatirchi tuman 78-maktab -toifali boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi

**ANNOTATSIYA**

*Ma’lumki, boshlang‘ich ta’limda o‘rganiladigan o‘quv fanlari ta’limning keyingi bosqichlarida o‘rganiladigan fanlar uchun propedevtik materiallar (fanlar yuzasidan qat’iy algoritm asosida, aniq maqsad sari quyi bosqichda o‘rganiladigan axborotlar) bilan ta’minlashni nazarda tutadi. Xususan, boshlang‘ich sinflarda matematika fani algebra, geometriya, informatika kabi fanlar uchun propedevtik materiallar (ushbu fan sohalari bo‘yicha o‘quv axborotlari) bilan ishlash (axborotlar to‘plash asosida o‘zlashtirish, birlamchi qayta ishlov berish asosida qo’llay olish) ga o‘rgatishning dastlabki bosqichi sifatida xarakterlanadi. Shuning uchun o‘quvchilarda axborotlar bilan ishlash tayanch kompetensiyasini shakllantirishda matematika fani ustuvor hisoblanadi.*

**Kalit so‘zlar:** matematika, an’anaviy ta’lim, axborot, integratsiya, algoritm, mashq, mustahkamlash.

An'anaviy ta'limda yangi mavzular o'quvchilarga algoritmik tarzda berilib, so'ngra uni mustahkamlash uchun mashqlar berish orqali o'rgatiladi. Mustahkamlovchi darslarda o'z navbatida, o'tgan mavzularga oid bilimlar tizimlashtirilib chiqiladi. O'quvchilar axborotlarni tushunish, interpretatsiya (lot. «interpretatio» - tushuntirish, izohlab, berish) qilish ya'ni, axborotning ma'nosini, tub mohiyatini olib berish, tushuntirishga kam jalg qilinadi.

O'quvchilarning hayotiy faoliyatlar davomida moddiy borliqdagi predmetlar, atrofdagi voqeа-hodisalar, o'z xatti-harakatlari, ijtimoiy munosabatlar to'g'risidagi axborotlarni doimiy tahlil qilishi, baholab borish asosida eslab qolishi, anglash asosida qo'llay olishi o'rganilayotgan axborotning ahamiyatini tushunishida muhim o'rinn tutadi. Shuning uchun matematika darslarida axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish jarayonini mustaqil hayotiy faoliyatlar davomida axborotlar bilan ishlash kabi yondashuv (axborotlarni tahlil qilish, sintez qilish, baho berish asosida eslab qolish hamda tushunish asosida qo'llash) bo'yicha tashkil etish maqsadga muvofiq. Axborotlarning tahlili va sintezi axborotlarni o'zlashtirishning mukammal darajasi sifatida anglagan axborotni eslab qolish hamda qo'llay olishga yordam beradi. Buning uchun o'quvchilarni:

- Mustaqil o'ylashga jalg qilish: o'quvchilar tushunchani o'zлari topishlari, o'zлari tushunishlariga erishish lozim. Chunki bu jarayonni hayotiy faoliyatları davomida qayta-qayta amalga oshirishadi;

- konteks va alohida faktlar bilan ishlashga o'rgatish: axborotlarni esda saqlash uchun, kontekst bilan birga faktlarni ham o'rganishlari lozim;

- noma'lum vaziyatlar uchun moslashtirish: agar o'qituvchi axborotlar bilan ta'minlab, tushuntirib, tushunchani mustahkamlash uchun amaliyotda qo'llashga o'rgatsa, o'quvchilar bilimlarini faqat tanish vaziyatlar uchun qo'llay oladi. Moslashuvchanlikni rivojlantirish, jarayonning yo'nalishiga qarab ishning borishini tahlil qilish va olib borish kutilmagan vaziyatlarda ham samarali natijani kafolatlaydi.

- axborotlarni mustaqil izlashga o'rgatish: axborotlarni o'quvchilarga shunchaki taqdim etish emas, kashf qilishlariga imkon berish.

- Axborotlar bilan ishslashda o‘quvchilar mustaqil hayotiy faoliyatları kabi dastlab axborotlarni tahlil qilish, ularni sintez qilish, axborotlarga baho berish asosida zarur axborotlarni eslab qolish, axborotlarni ahamiyatini tushunish va axborotlarini qo‘llash orqali axborotlarini yig‘ish, tahlil qilish va yakuniy xulosani sintezlash mumkin. Faqat shundagina bilim asosli bo‘ladi. Bu yondashuv asosida o‘quvchilar xuddi fayotiy faoliyatlar kabi. gipotezalar yaratishadi, tajribalar o‘tkazishadi, ulardan xulosa chiqarishadi va kerak bo‘lsa xulosalarni qayta ko‘rib chiqishadi.

- Boshlang‘ich sinflarda «Matematika» fani dasturi o‘quv materiallari zaruriy umumlashtirishlarni shakllantirish uchun eng qulay sharoitlar yaratish maqsadida faqat mazmunga emas balki, o‘quv materialining joylashish sistemasi ham javob berishi lozim. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinflarda «Matematika» fani dasturida o‘quv materiali chiziqli va konsentrik joylashgan bo‘lib, chiziqli tuzilish dasturda materialning mantiqiy ketma-ketlikga asoslanganligidir. Masalan, arifmetikaga nisbatan chiziqli qurilish bunday bo‘lishi mumkin: ko‘p xonali sonlarni nomerlash, qo‘shish, ayirish, ko‘paytirish va bo‘lish. O‘quv materialini konsentralshtirish axborotlarni o‘zlashtirishga ajratilgan vaqtga asoslangan holda, o‘quv materiallarini tizimlashtirishni talab etib, o‘quv materiallarini konsentralshtirishga jamlash o‘quv materiallarini tizimlashtirilganlik darajasi, ma’lum belgilangan vaqt oralig‘ida o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtiriladigan o‘quv axborotlari hajmi, o‘quv jarayonini tashkil etish va amalga oshirishdir.

*Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:*

1. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagи “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategisi to‘g‘risida”gi PF-4947 son Farmoni //O‘zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to‘plami, 2017 yil., 6-son, 70-modda.*
2. *Adizov B “Boshlang‘ich talimni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari” Toshkent. 2002- yil.*
3. *E.G‘oziyev. Ta’lim jarayonida o‘quvchilar tafakkurining o‘sish. Toshkent “Fan” nashriyoti 1980 yil. 46-bet.*
4. *M.M.Sultonov. Matematika darslarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv-intellektual qobiliyatini rivojlantirish. O‘quv qo‘llanma. Toshkent 2012*
5. *S.Burxonov, O‘. Xudoyorov. 3-sinf matematika darsligi. Toshkent 2019.*